

## O'ZBEK TEATRI DARG'ALARI

### Mumtozbeqim Turg'unova

*Xoreografiya jamoalar rahbari 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar; **Abduhamidov Akmal***

*O'z DSMI FMF "Xoreografiya" o'qituvchisi*

**Anatatsiya:** *Ushbu maqolada milliy teatrimizning shakllanish omillari, ulardagi aktyorlar, aktyorlarning ijodiy faoliyatlari haqida so'z boradi.*


**Kalit so'zlar:** *aktyor, sahna, teatr, teatr san'ati, spektakl, rol, ijro, mahorat, qo'g'irchoq teatri*

Mustaqillik yillarida madaniy hayotda ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu avvalo teatr san'ati rivojlanishida yaqqol sezila boshlandi, yangi teatr dargohlari qurib ishga tushirildi. 1991-yilda Farg'ona, 1993-yilda Xorazmda davlat qo'g'irchoq teatrlari ish boshladi, 1994-yilda Qashqadaryo va Namangan viloyat teatrlari qoshida qo'g'irchoq guruhlari, 2001-yilda Surxondaryo viloyat qo'g'irchoq teatri ochildi. Shu vaqt davomida va shu vaqtgacha ko'plab aktyor va aktrisalar o'zbek teatr san'atida yorqin iz qoldirishdi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi Taniqli teatr va kino aktyori Shukur Burhonov 1910-yil 15-sentyabrda Toshkentda bog'bon oilasida dunyoga keldi. Shukur Burhonov boshlang'ich maktabni bitirib, Toshkent qishloq xo'jalik texnikumiga kirdi. Bundan tashqari, o'qish davomida badantarbiya to'garagi hamda badiiy to'garaklarga faol qatnashdi. So'ngra o'sha vaqtda "Ko'k ko'ylak" nomi bilan yoshlar orasida tashkil etilgan havaskorlar truppasida ishladi. U 1928-yilda Samarqandga borib, O'zbek davlat teatriga aktyor bo'lib ishga kirdi. U yerda esa teatr bosh rejissyori Alekseyev qo'lida Shohidaxonim va Karim Zakiriy bilan birga 6 oy o'qidi. Bu o'qish davrida aktyor hunari (ustaligi)ning asosiy o'ziga xos xususiyatlari bilan umumiy tusda tanishdi. 1930- yilda Moskvada bo'lgan teatr olimpiadasiga borib qatnashish Shukur Burhonov uchun ko'p foydali bo'ldi. Bunda o'sha davr teatrchiligining yaxshi namunalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi, uning saxnaga muhabbatini oshirib yubordi, shu bilan birga, aktyorlik san'ati zo'r qobiliyat talab etuvchi og'ir ish ekanini chuqurroq angladi. 1932-yilda Umarjon Ismoilovning "Rustam" asari bilan Shukur Burhonov ijodining yangi davri boshlandi. Rustam obrazi uydirma va turmush haqiqatidan uzoq bo'lsa ham, Shukur Burhonov uni birmuncha muvaffaqiyat bilan o'ynadi. Keyinchalik sahna yuzini ko'rgan "Yondiramiz", "O't kelini", "Tarix tilga kirdi", "Qo'zibuloq", "Makr va muhabbat", "Malikai Turondot" kabi spektakllar Shukur Burhonov ijodiy salohiyatining kamol



topishida muhim o'rin tutdi. Shukur Burhonov II jahon urushi va urushdan keyingi yillarda harbiy sarkardalar obrazini yaratishga alohida e'tibor berdi. Izzat Sultonning "Burgutning parvozi" pyesasidagi Frunze, Komil Yashinning "General Rahimov" asarida Sobir Rahimov kabi obrazlar shular jumlasidandir. U ijobiy qahramonlar obrazlarini yaratish bilan bir qatorda salbiy qahramonlar obrazini ham katta mahorat bilan ijro etdi. O'tgan asrning 50-60-yillarida Hamza nomidagi O'zbek Davlat akademik drama teatrida jahon va o'zbek mumtoz dramaturgiyasining bir qancha noyob asarlari katta muvaffaqiyat bilan sahnalashtirildi. Ularning aksariyatida bosh rollarni ijro etish Shukur Burhonovga nasib etdi. Uning ijrosidagi V. Shekspirning "Hamlet" va "Yuliy Sezar" tragediyalaridagi Hamlet, Brut va Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasidagi Mirzo Ulug'bek obrazlari faqat san'atkor ijodidagina emas, balki o'zbek teatri tarixida ham ulkan voqea bo'ldi. Shukur Burhonov ijrosidagi Sulaymon ota obrazi aktyorlik san'ati rivojlanishidagi bosqichli obrazlar sirasiga kiradi. Sulaymon ota obrazini chinakam milliy ijod bo'lib qolgan, o'zida vatanparvarlik, baynalmillik, insonparvarlikning tub fazilatlarini mujassamlashtirgan harakatlar qatoriga qo'yish mumkin. Shukur Burhonov yaratgan Sulaymon ota obrazi nafaqat halollikning, balki olijanoblik va ezgulikning timsoli bo'lib gavdalanadi. Uning baxtsizlikka uchragan ayolga dalda bo'lishi, oilaviy kelishmovchilikning zahmini tortayotgan yigitga xayrihohlik bildirishi obrazning umumiy "men"ligini ko'rsatib turadi. Shukur Burhonov kino san'atimiz rivojlanishiga ham juda katta hissa qo'shdi. U "O'zbekfilm", Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon hamda "Mosfilm" kinostudiyalarida suratga olingan qator filmlarda rango-rang, sira ham unutilmas, o'tkir xarakterli yetuk va salobatli obrazlar yaratib, kino san'ati muxlislarining ulkan muhabbatini qozondi va san'atning ushbu jabhasida ham ular boqiylikka yuz tutdi. Filmda Shukur Burhonov yaratgan Mirzo Ulug'bek obrazi aktyorning kinodagi eng katta yutug'i bo'ldi. Keyinchalik, u 1965-yilda Komil Yormatovning "Osiyo ustida bo'ron" filmida Yalangto'sh, 1966-yilda "Vijdon amri bilan" filmida professor Mahmudov, 1968 yilda "Inqilob chavandozlari"da Aznauz, "Vatan farzandlari"da haykaltarosh kabi bir necha yirik va murakkab rollarni ijro etdi. Shukur Burhonovning ijodiy faoliyati munosib taqdirlandi. Shukur Burhonovga "O'zbekiston xalq artisti (1940) faxriy unvoni berilgan. Shuningdek, u Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1965) bilan taqdirlangan. Betakror iste'dodi va o'lmas ijodiy merosi bilan o'zbek milliy madaniyatining rivojiga beqiyos hissa qo'shganligi, butun hayotini el-yurt taraqqiyoti, xalqimiz m'naviyatining yuksalishiga baxsh etganligi uchun Shukur Burhonov 2001-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi. Mashhur kino va teatr aktyori, o'zbek san'atining ulkan arbobi Shukur Burhonov 1987-yil 14-avgustda





Toshkentda vafot etdi. Obid Yunusov ushbu teatrda ishlash davomida yuzdan oshiq turli hil harakterdagi obrazlarni yaratgan. Aktyor tomoshabinlarga «Parvona» spektaklidagi «O'tkuriy» roli bilan tanilgan. Ushbu obrazni u faoliyati davomida 800 martadan ko'p ijro etgan. Aktyor kinoda ham ko'plab esda qolarli rollarni ijro etgan bo'lib, ular orasida «To'ylar muborak», «Kelinlar qo'zg'oloni» hamda «Chinor ostidagi duel» filmlaridagi obrazlari orqali xalqimizga yaxshi tanish. Obid Yunusov kino va teatrdan tashqari yana dublaj sohasida ko'p yillar ishlagan. U faoliyati davomida 1000 dan oshiq filmlar dublajida ishtirok etgan. Ushbu aktyor o'zining san'at sohasidagi ko'p yillik hizmatlari orqali 1987 yilda «O'zbekiston xalq artisti» unvoni hamda 1988 yilda Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Aktyorni shaxsiy hayoti haqida: Obid Yunusov Shahloxon ismli ayolga uylangan. Ular turmushlari davomida ikki o'g'il farzandli bo'lishgan. Hozirgi kunda aktyorning olti nafar nabirasi hamda o'nlab evaralari bor. Ushbu aktyor 2015 yil sentyabr oyida 80 yoshda olamdan o'tgan. Uni Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan. Xulosa qilib aytganda, o'zbek milliy san'atida ushbu aktyorlar havas qilsa arzigulik ijod qilishdi. Ularning ijodi tariximizda mangu va barhayotdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [www.teatr.uz](http://www.teatr.uz)
2. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
3. Islom Karimov "YUKSAK MA'NAVIYAT - YENGILMAS KUCH"

